

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIIYa INSTITUTI



**TOSHKENT MOLIIYa INSTITUTIDA
2009/2010 O‘QUV YILIDA AMALGA OSHIRILGAN MA‘NAVIY-MA‘RIFIY ISHLAR YUZASIDAN
H I S O B O T**

TOSHKENT 2009

“Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma’nosi qobil farzandlar o‘stirish, ularni ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko‘rish, ota-onasiga, vatanga sadoqatli kishilar etib voyaga etkazishdan iboratdir”.

Islom Karimov

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng mamlakatimiz o‘z oldiga strategik maqsadlar va istiqboldagi vazifalarni belgilab oldi. Bular xalqimizda, ayniqsa yoshlar orasida ijtimoiy-siyosiy hamda mafkuraviy dunyoqarashni yuksaltirish, ma’naviyatimizga, milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizga hurmat tuyg‘usini shakllantirish, yoshlarning qalbi va ongi, sog‘lom tafakkuri uchun kurashni taqazo etayotgan bugungi kunda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga alohida e’tibor qaratish, ma’naviyatni yoshlar ongu-shuuriga singdirishning yangicha uslub va mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Shu ma’noda institutning 2009-2010 o‘quv yilida amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasi ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalardagi islohotlarga hamohang tarzda ishlab chiqildi.

Rejada belgilangan tadbirlar mohiyatiga ko‘ra, talabalarda komil inson fazilatlarini tarbiyalash, yoshlarning dunyoqarashini bunyodkor g‘oyalar bilan oziqlantirish, ularning bo‘sh vaqtini sermazmun o‘tkazish, ma’naviy tadbirlarning ma’rifiy tadbirlar bilan uyg‘unligini ta’minlash, intellektual mulkka egalik tuyg‘usini shakllantirish, tashabbus va yangilikni qo‘llab-quvvatlash, yurt tinchligi va o‘zaro jipslikka erishishga doir bir qator masalalarni o‘zida aks ettiradi.

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTIDA 2009-2010 O‘QUV YILIDA AMALGA OSHIRILGAN
MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR YUZASIDAN
H I S O B O T**

№	Rejada belgilangan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarining mazmuni	O'tkazilgan joyi va vaqti	Tadbirga mas'ul	Amalga oshirilgan ishlar	Erishilgan natija
I. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI MUVOFIQLASH TIRISHGA DOIR TASHKILIY MASALALAR					
1.1.	Vazirlikning ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi asosida institutning yangi o'quv yili uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlar reja-sini ishlab chiqish va Ilmiy Kengashda tasdiqlash	Ilmiy Kengashda Sentyabr	Ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo'yicha prorektor, Fakultet dekanlari	Institutning 2009-2010 o'quv yiliga mo'ljallangan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi avgust oyida institut axborot-resurs markazi o'quv zalida o'rnatilgan kompyuterlarga joylash-tirilib va uning mazmun-mohiyatidan keng jamoatchilik fikri asosida takomillashtirildi. Ish reja institut Ilmiy Kengashining 2009 yil 30 sentyabrdagi №2-sonli qarori asosida tasdiqlandi.	Institut professor-o'qituvchilari va talabalari institutda rejalashtirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar miqyosidan xabardor bo'ladilar va o'z mulohazalari bilan uni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi-lar. Institut ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini tayyorlashda keng jamoatchilikning bevosita ishtiroki ta'minlandi.
1.2.	Kafedralar, fakultetlar va tegishli bo'limlarda institut ma'naviy-ma'rifiy ishlari rejasini ijro uchun qabul qilish va u asosida o'z rejalarini ishlab chiqish	Fakultet-larda Sentyabr	Fakultet dekanlari, Kafedra mudirlari, bo'lim boshliqlari	Tasdiqlangan reja asosida barcha fakultetlar va kafedralardagi rejalar takomillashtirildi va bir tizimga keltirildi.	Institut ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini muvofiqlash-tirish va tizimli olib borishga erishildi.
1.3	Fakultetlarda "Axborot va ta'lim-tarbiya soatlari"ni dars jadvalida ko'rsatgan holda yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash	Fakultet-larda Muntazam	Ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo'yicha prorektor, Ustoz-murabbiylar kengashi raisi, Fakultet dekanlari	Ikki haftada bir marta dars jadvalida 1 juft soat "Axborot va ta'lim-tarbiya soatlari" uchun ajratilgan.. Jumladan, dushanba - Kredit-iqtisod fakultetida, seshanba - Soliq, va sug'urta ishi fakultetida, chorshanba - Boshqaruv fakultetida, chorshanba, payshanba – Moliya-iqtisod fakultetida, juma – Hisob-iqtisod fakultetida, shanba - Umumiy iqtisod va Moliya-injiniroing fakultetlarida "Axborot va ta'lim-tarbiya soatlari" o'tkazilmoqda.. Darslarning o'z vaqtida va maqsadli o'tilishi nazorat ostiga olingan.. Ustoz va	Guruh murabbiylari o'zlarining ma'naviy va siyosiy etukliklari ustida ishlay-dilar. Talabalarning zamon bilan hamnafas bo'lishi ta'minlandi.

				murabbiylar kengashi institut "Axborot" guruhi bilan doimiy hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy ishlar-ni yanada jonlantirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro maydonda yuz berayotgan muhim voqealar to'g'risida talabalarga doimiy ma'lumotlar berib boriladi, ularning ongi, dunyoqarashini milliy g'oya, istiqlol mafkurasi ruhida shakllantirish, begona, yot g'oyalar va qarashlardan asrash borasida keng ko'lamlil ma'naviy-ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni olib borilmoqda.	
1.4.	Institut rektori va prorektorining talabalar bilan ochiq muloqotlarini o'tkazish jadvalini tuzish	Fakultet-larda Sentyabr-fevral	Ma'naviy-axloqiy tarbiya va o'quv ishlari bo'yicha prorektorlari		Institut rahbariyati va talabalar o'rtasidagi bevosita muloqotlar mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga ko'maklashish bilan birga rahbariyat bilan talabalar o'rtasida birdamlik kayfiyatini tug'dirdi.
1.5.	Talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maksadida institutda tashkil etilgan ilmiy to'garaklar, ijodiy markazlar faoliyatini rejalash-tirish va tashkil etish	Fakultet-larda Sentyabr	Ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlar bo'yicha prorektor, Ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, Fakultet dekanlari	Institut tasarrufida 26 ta to'garaklar faoliyat yuritadilar, bular quydagilar Moliyachi, Yosh investor, Marketing, Yosh menejer, Yosh faylasuf, Yosh bankir, Ingliz tili, Frantsuz tili, Nemis tili, Yosh tahlilchi, Zamonaviy buxgalter, Auditor, Moliyaviy menejer, Yosh aksioner, Yosh sug'urtachi, Yosh soliqchi, Iqtisodchi-dasturchi, Tilshunos, Yosh statistik, Biznesmen, Yosh geograf, Moliyachi-futbolchi, Basketbolchi-iqtisodchi, Stol tennisi, Yosh tarixchilar, G'aznachilar.	Talabalarning darsdan bo'sh paytlarida o'z ma'naviy-aqliy salohiyat-larini oshirishlariga ko'maklashildi.
1.6	Talabalar turar joylarida o'zini-o'zi boshqarish tizimida faoliyat yurituvchi "Talabalar Kengashi"ga	Fakultet-larda Sentyabr	Talabalar turar joyi komendantlari,	Barcha talabalar turar joylarida saylov asosida «Talabalar Kengashi» raislari saylandi va ularning strukturasi asosida	Talabalarda liderlik qobiliyati shakllanadi, ularning mustaqil harakat

	saylov o'tkazish va uning faoliyatini muvofiq-lashtirish		"Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi, Fakultet dekanlari	Kengash a'zolari belgilandi.	qilishiga imkoniyat yaratiladi, yoshlarning tashabbuskorlik faoliyati rag'batlantirildi
1.7	Institutda mavjud muammo va kamchiliklar yuzasidan talabalar o'rtasida sotsiologik so'rovnoma o'tkazish	Barcha fakultet-larda 2009 yil iyun 2010 yil yanvar	Ichki nazorat va monitoring bo'limi va "Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi	Sotsiologik, psixolog va pedagogik xizmat guruhi bilan hamkorlikda barcha talabalar orasida so'rovnoma o'tkazildi.	Institut kundalik hayotiga talabalar nigohi bilan nazar tashlanadi, talabalar o'rtasidagi mavjud muammo va kamchiliklar o'rganiladi va bartaraf etildi.
1.8.	" Taklif va mulohazalar qutisi "da bildirilgan muam-molarni o'rganib borish va institut Ilmiy Kengashida muhokama qilish	Ilmiy Kengashda Har chorakda	Ishchi guruh	Institut talabalarining taklif va fikr-mulohazalarini o'rganish maqsadida institut bosh binosi, fakultetlar va talabalar turar joylarida «Adolat qutisi» tashkil etilgan bo'lib, har oyda bir marta institut «Ichki nazorat va monitoring» hamda «Ma'naviyat va ma'rifat» bo'limlari tomonidan ochilib, o'rganilib boriladi. «Adolat qutisi»dan olingan murojaatlar jamlanib, institut Ilmiy kengashida har chorakda bir marta muhokama qilinishi yo'lga qo'yilgan.	Institut kundalik hayotiga talabalar nigohi bilan nazar tashlanadi, talabalar o'rtasidagi mavjud muammo va kamchiliklar o'rganiladi va bartaraf etildi.
1.9.	Talabalar sog'ligini, jismoniy rivojlanishini o'rganish maqsadida tibbiy ko'rikdan o'tkazish	O'quv guruh-larida Sentyabr- Noyabr	Talabalar kasaba uyushmasi, "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrası, Fakultet dekanlari	2009 yilning sentyabr oyida institutda tahsil olayotgan barcha talaba-yoshlar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi	Talabalarning salomat-liklari nazoratga olinadi va turli yuqumli kasalliklarning oldi olindi.

II. SHAXSNING MA'NAVIY KAMOLOTINI YUKSALTIRISH

2.1.	Talabalar orasida "Yuksak ma'naviyat mezonlari" mavzu-sida davra suhbatini tashkil etish	O'quv guruxlarida Doimiy	XIF dekani M.Raximov, XIF dekan muovini A.Ro'zmamatov, guruh murabbiylari	Hisob-iqtisod fakultetida 2009 yilning 3 sentyabrida "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi. 2009 yil 24 sentyabr kuni soat 11:00da Toshkent shahar Adliya boshqarmasi, Toshkent shahar Manaviyat-targ'ibot markazi, Yunusobod tumani Manaviyat va marifat Kengashi, tuman Xotin-qizlar qo'mitasi, Toshkent davlat yuridik instituti bilan hamkorlikda Toshkent moliya institutida yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni etuk fuqarolar etib shakllantirishga qaratilgan "Huquqiy madaniyat milliy manaviyatning ajralmas qismidir" shiori ostida manaviy-marifiy anjuman o'tkazildi. Tadbirda Toshkent shahar Adliya boshqarmasi bosh mutaxassisi A.Berdiev, Toshkent davlat yuridik instituti dotsentlari X.Muhamedov, I.Kudryatsovlar, "Turon" mahallasi vakillari, institut Xotin-qizlar kengashi raisi R.Azimbaeva, "Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi boshlig'i O'.Norboev, Kredit-iqtisod fakulteti dekan muovini A.Botirov, Boshqaruv fakulteti dekan muovini B.Sulaymonov hamda 130 nafar talabayoishlar ishtirok etdilar. Tadbir "Toshkent" teleradiokanalining "Poytaxt" informatsion dasturida hamda "Toshkent" va "Mash'al" radiolari orqali yoritildi.	Bunday darslarda talabalar yuksak ma'naviy fazilatlarini egallash va ma'naviy etuk bo'lish yo'llarini o'rgandilar.
2.2.	"G'azalxon yoshligim", "So'z va soz sehri", "Mumtoz musiqamiz navolari" mavzularida mushoira va badiiy kechalar o'tkazish	Fakultetlar va talabalar turar joylarida Har chorakda	"Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi, Fakultet dekanlari,	Institut tasarrufidagi 1-sonli Talabalar turar joyida 5 noyabrda "Sug'urta ishi" kafedrasi tashabbusi bilan yozuvchi Shoim Bo'taev ishtirokida "Bugungi zamon yoshlarining	Talabalarda she'riyat va mumtoz musiqa san'ati to'g'risidagi tushunchalar

			«Kamolot» YoIH IBT	muammolari va yutuqlari ” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi. Institut Axborot-resurs markazida 2009 yilning 16 dekabrda O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim bilan uchrashuv o‘tkazildi. Uchrashuvda talabalar xalq shoiri Usmon Azim bilan jonli muloqatda bo‘lib, shoirning she‘riy asarlaridan baxramand bo‘lishdi, shuningdek, savol-javoblar orqali shoirning ijodi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Uchrashuvda “Moliyachi” gazetasi redaktori L.Baxramov, “Kamolot” YoIH IBT raisi K.Mahmudov, Kredit-iqtisod fakulteti va Boshqaruv fakulteti talaba-yoshlari ishtirok etdilar.	rivojlandi.
2.4	"Talabaniq ma'naviy qiyofasi", "Inson odobi bilan go'zal" kabi mavzularda davra mashg'ulotlari va uchrashuvlar tashkillashtirish	Fakultet-lar va Talabalar turar joylarida Har chorakda	“Ma'naviyat va ma'rifat” bo‘limi, Ustoz-murabbiylar Kengashi, Fakultet dekanlari «Kamolot» YoIH IBT	2-sonli talabalar turar joyida oktyabr oyida “Pedagogika va psixologiya” kafedrasidan tomonidan "Talabaniq ma'naviy qiyofasi", "Inson odobi bilan go'zal" mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi. Suhbatda Boshqaruv fakulteti dekan muovini B.Sulaymonov, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasidan professor-o‘qituvchilari hamda 2-sonli talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talabalar ishtirok etdilar. Suhbat davomida talabalarga axloq-odob, kiyinish va muomala madaniyati haqida tushunchalar berildi.	Talabalarning ma'naviyat-li, odobli va madaniyatli bo'lishiga erishildi.
2.5.	Milliy qadriyatlar, an'ana, udumlar, tarixiy va madaniy merosni to'liq o'rganish bo'yicha davra suhbatlari tashkil etish	Fakultet-lar, Talabalar turar joylarida Har chorakda	“Ma'naviyat va ma'rifat bo‘limi, Ustoz-murabbiylar Kengashi, «Kamolot» YoIH	O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasidan tomonidan 15-30 sentyabr kunlari tashkil etilgan “ Qo'li guldur o'zbek ayolni... ” deb nomlangan ko'rgazma savdoga institutda taxsil olayotgan 600 nafar talaba-yoshlarning guruh murabbiylari rahbar-ligida tashrif-lari uyushtirildi. Ko'rgazmada talabalar xotin-	Talabalarda milliy kadriyatlar, an'ana, udum-lar, tarixiy va madaniy merosga nisbatan hurmat tuygusi kuchaydi.

			IBT, fakultet dekanlari	qizlar uchun uy-ro'zg'orda kerak bo'ladigan maxsulotlar bilan tanishdilar. Bu esa talabalarda milliy kadriyatlar, an'ana, udumlar, tarixiy va madaniy merosga nisbatan hurmat tuygusini o'yg'otdi.	
2.7.	Talabalarining madaniy yodgorliklar, tarixiy qadamjolar, muzeylar hamda ko'rgazmalarga sayohatlarini tashkil etish	Joylarda Muntazam	“Ma’naviyat va ma’rifat” bo’limi, Fakultet dekanlari, Guruh ustoz-murabbiylari	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 19 sentyabrdagi “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” umumxalq bayrami munosabati bilan Toshkent shahri va joylarda o‘tkaziladigan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi 07-16-54-sonli majlisi bayonida belgilangan vazifalar hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 22 sentyabrdagi 87-02-1569-sonli modermnomasi ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent moliya instituti professor-o‘qituvchilari hamda talaba-yoshlarining maxsus jadval asosida muzeylarga tashriflari tashkil etildi. Jumladan, Moliya-iqtisod fakulteti talabalari “Temuriylar tarixi” muzeyiga (24.09.2009), Soliq va sug‘urta ishi fakulteti talabalari “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyiga (25.09.2009), Kredit-iqtisod fakul-teti talabalari “O‘zbekiston Respub-likasi davlat Olimpiya shon-shuhrati” muzeyiga (26.09.2009), Boshqaruv fakulteti talabalari “O‘zbekiston davlat san’at” muzeyiga (28.09.2009), Hisob-iqtisod fakulteti talabalari “O‘zbekiston davlat tarixi” muzeyiga (29.09.2009) Moliya-injiniringi va Umumiqtisod fakultetlari talabalari “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari markaziy” muzeyiga (30.09.2009).	Talaba-yoshlarda milliy g‘urur va iftixor hamda millat tarixiga nisbatan ehtirom tuygulari shakl-lantirildi.

				<p>Jami 300 nafar talabaning tashrifi uyushtirildi. Toshkent shahridagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylarga jumladan, Hazrati imom majmuasi, Baroqxon madrasasi, Al-Buxoriy nomidagi “Toshkent islom instituti”, “Hazrati Usmon” muzeyi, O‘zbekiston Davlat tarixi muzeyi, Amir Temur muzeyiga, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyiga institutda tahsil olayotgan talaba-yoshlarning tashriflari uyushtirildi.</p> <p>“O‘zekspotsentr” markazida joriy yilning 9-12 sentyabr kunlari “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” munosabati bilan “Qishloq farovonligi – yurt farovonligi” mavzusida arxitektura va qurilish sohasida tashkil etilgan ko‘rgazmaga 9 sentyabr kuni institutning 8 nafar professor-o‘qituvchisi va 62 nafar talaba-yoshlarining tashriflari uyushtirildi.</p> <p>“Sog‘lom avlod uchun” xalqaro jamg‘armasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Sinxron suzish federatsiyasi bilan hamkorlikda 2009 yilning dekabr oyida Sinxron suzish bo‘yicha an’anaviy “Suv parisi” Xalqaro turniri o‘tkazildi. Turnirda tomoshabin sifatida institutda tahsil olayotgan 50 nafar talaba-qizlarning dekan muovnlari rahbarligida tashriflari uyushtirildi.</p>	
--	--	--	--	---	--

III. DINIY BAG‘RIKENGLIK (TOLERANTLIK) MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

3.1.	"Millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik va uning ahamiyati" mavzusida dinshunos olimlar ishtirokida davra mashg‘ulotlari	Fakultet-lar, Talabalar turar joylarida Har chorakda	“Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi, Fakultet dekanlari,	2009 yil 30 oktyabr kuni Soliq va sug‘urta ishi fakultetida “Yoshlar ongida diniy bag‘rikenglik g‘oyasini shakllantirish” mavzusidagi davra suhbat bo‘lib o‘tdi. Tadbirda “Falsafa” kafedrasi mudiri	Talabalar barcha millat vakillari bilan totuv yashashning ahamiyatini asoslab bera oladilar, buzgunchi g‘oyalarni fosh
------	---	--	---	---	--

	tashkil etish		«Kamolot»	N.Mamatov, kafedra professor-o‘qituvchilari, institut “Kamolot YoIX” raisi K.Mahmudov, Respublika musulmonlar diniy uyushmasi vakillari, guruh ustoz-murabbiylari hamda talaba-yoshlar ishtirok etdilar. Institutning katta majlislar zalida 10 fevral kuni “Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik barqaror taraqqiyot omili” mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Suhbatda Toshkent Davlat Islom Universiteti islom tadqiqot markazining direktori, falsafa fanlari doktori, professor A.Ochildiev, islomshunoslik ilmiy-tadqiqotlar markazi ilmiy xodimi J.Aliev, “Statistika” kafedrasining professor-o‘qituvchilari hamda Magistra-tura va Hisob-iqtisod fakulteti talaba-yoshlari ishtirok etilar.	qila oladilar.
3.2	Talabalar turar joylarida "Yurtimiz kelajagi yoshlar ko'lida" mavzusida taniqli shoirlar, yozuvchilar va davlat arboblari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari uyushtirish	Talabalar turar joylarida Har chorakda	“Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi, «Kamolot» YoIH IBT, Talabalar Kengashi	2009 yilning 31 oktyabrida “Falsafa” kafedrasidan akademguruhlarda “Jamiyatni modernizatsiyalash jarayo-nida yoshlar ongida iqtisodiy tafakkurni shakllantirish” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi. Tadbirda akademguruh murabbiylari va guruh talabalari qatnashdilar. 5 noyabr kuni 1-sonli talabalar turar joyi “Sug‘urta ishi” kafedrasidan “Bugungi zamon yoshlarining muammolari va yutuqlari” mavzusida davra suhbatini o‘tkazildi. Suhbatda O‘zbekistonda hamda chet elda o‘zining betakror asarlari bilan o‘z muxlislariga ega bo‘lgan taniqli yozuvchi va publitsist Shoyim Bo‘taev, Sug‘urta ishi kafedrasini mudiri X.Shennaev, kafedra professor-o‘qituvchilari, Soliq va sug‘urta ishi fakulteti dekan muovini	Talabalar ongiga yoshlar bizning nafaqat kelajagi-miz, balki bugungi kuni-mizning hal kiluvchi kuchi degan g‘oyani singdirishga erishildi.

				<p>M.Primov hamda talabayoshlar ishtirok etdilar. Tadbir “Moliyachi” gazetasida va institut veb-saytida yoritildi. 7 noyabrda 1-sonli talabalar turar joyida “Yoshlar salohiyati - kelajak muvofaqiyati” mavzusida davra suxbati bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Soliq va sug‘urta ishi dekani muovini M.Primov, kafedra mudiri prof.N.Mamatov, S.Rahimov, Sh.Jo‘raev, dotsent E.Rasulev, T.Norboev, katta o‘qituvchilar A.Abdullaev, A.Raxmonov institut “Kamolot YoIX” raisi K.Mahmudovlar va 1-sonli talabalar turar joyida yashovchi talabalar qatnashdilar.</p>	
3.3	<p>"Missionerlar kim va ularning maqsadi nima?", "Missionerlik va prozeli-tizm haqida siz nimalarni bilasiz?", "Diniy oqimlar va sektalarning maqsad-muddao-lari" kabi mavzularda mutaxassislar ishtirokida ochiq muloqotlar o‘tkazish</p>	<p>Fakultet-larda Har chorakda</p>	<p>“Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi, «Kamolot» YoIH IBT, Fakultet dekanlari</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Din Ishlar Qo‘mitasi hamda Toshkent moliya instituti hamkorligida 2009 yilning 29 oktyabrda «Diniy ekstremizm va missionerlikning oldini olish choratadbirlari» mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Tadbirda institut Ma’naviy-axlokiy tarbiya ishlari bo‘yicha prorektori Sh.Azimov, ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori Yo.Abdullaev, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Diniy qo‘mita vakili M.Haydarov, Rus Provaslav cherkovi vakili O.Shkovoroduk, Boshqaruv fakulteti dekani F.Karimov, Kredit-iqtisod fakulteti dekani O.Sattorov, “Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi xodimlari, «Kamolot» YoIH IBT etakchisi K.Mahmudov, «Kamolot» YoIH IB Tashkilotining fakultet va guruh etakchilari hamda talaba-yoshlar ishtirok etdilar.</p>	<p>Talabalar missionerlar va ularning asl maqsadi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ldi.</p>

IV. SIESIY-HUQUQII BILIM VA MADANIYatNI ShAKLLANTIRISH

4.1	Talabalarni Prezident I.A.Karimov asarlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Oliy Majlis sessiyalari material-lari, qabul qilingan Qonunlar-ning mazmun va mohiyati bilan tanishtirib borish	O‘quv guruhlarida, Talabalar turar joylarida Muntazam	“Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedralari	2009 yilning 23-27 noyabr oralig‘ida o‘tkazilgan “Axborot soatlari”da O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2009 yil 5 dekabr shanba dam olish kunini 2009 yil 7 dekabr dushanbaga ko‘chirish to‘g‘risida” gi qarori bilan barcha talaba-yoshlar tanishtirildi. 2010 yil 25-30 yanvar oralig‘ida o‘tkazilgan “Axborot soat”larida talaba-yoshlar Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining vo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir” deb nomlangan ma’ruzasi bilan tanishtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2010 yilni “Barkamol avlod yili “ deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan institutda qator tadbirlar uyushtirilmoqda. Jumladan, 2009 yil 25 dekabrda Moliya-iqtisod fakultetida “Barkamol avlod tarbiyasi – ulug‘ va muqaddas maqsad” ma’naviy–ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirda ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo‘yicha prorektor Sh.Azimov, Moliya – iqtisod fakulteti dekani prof. N.Xaydarov, MIF dekani muovini Sh.Allayorov, Salomatlik va tibbiy statistika instituti Toshkent filiali ilmiy xodimlari M.Ismoilxodjaeva, B.Xoliku-lov va fakultet talabalari ishtirok etdilar. 2-sonli talabalar turar joyida 16 yanvar kuni “Barkamol avlod yili” ga	Talabalar Prezident asarlari, Oliy Majlis sessiyalari materiallari Vazirlar Mahkamasi qarorlarining mazmun va mohiyati, ulardan kelib chiqadigan vazifalar bilan tanishtirib borildi.
-----	---	---	---	---	---

				<p>bag‘ishlab davra suhbatlari o‘tkazildi. Suhbatda Kredit-iqtisod fakulteti dekani O.Sattorov, dekan muovini A.Botirov, “Banklarda buxgalteriya hisobi va audit“ kafedrasining mudiri T.Qoraliev, kafedra professor-o‘qituvchilari hamda talaba-yoshlar ishtirok etdilar. 20 yanvar kuni Toshkent moliya instituti katta majlislar zalida “Yuksak ma’naviyatli talaba – yoshlarni shakllantirish” mavzusida ilmiy – amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi. Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi Ma’naviy–ahloqiy tarbiya bosh boshqarmasi xamda Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi ilmiy xodimlari va mutaxassislari, ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo‘yicha prorektor Sh.Azimov, Moliya – iqtisod fakulteti dekani prof. N.Xaydarov, MIF dekani muovini Sh.Allayorov va fakultet talabalari ishtirok etishdi. Ilmiy – amaliy seminar “Yoshlar” teleradiokanalining “DAVR” davr informatsion dasturida (21.01.2010) yoritildi.</p>	
4.2	<p>Talaba-yoshlarning siyosiy faolligi va siyosiy ongini o‘stirish va bo‘lib o‘tayotgan voqealardan xabardor etish maqsadida ijtimoiy-siyosiy to‘garaklar faoliyatini yanada takomillashtirish</p>	<p>"Notiklar" klubi Doimiy</p>	<p>Tegishli kafedra va bo‘limlar</p>	<p>2009 yil 18 dekabr kuni Institut tasarufidagi 1-sonli Talabalar turar joyida “Saylov - demokratiya ko‘zgusi” mavzusida davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi. Suhbatda Moliya – iqtisod fakulteti dekani prof. N.Xaydarov, Moliya – iqtisod fakulteti dekani muovini Sh.Allayorov, “Fuqarorlik jamiyatini” o‘rganish institutining Toshkent viloyati bo‘limi etakchi xodimi B.Tog‘aev, “Moliya” kafedrasining mudiri K.Karimova va fakultet talabalari ishtirok etdilar.</p> <p>2009 yil 23 dekabr kuni 1-sonli Talabalar</p>	<p>Respublikamizda va dunyoda yuz berayotgan muhim voqealar talabalarga o‘z vaktida etkaziladi va ularda voqealarga nisbatan munosabat shakllan-tirildi.</p>

			<p>turar joyida “Sening ovozing-sening kelajaging” mavzusida ma’naviy – ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Moliya – iqtisod fakulteti dekani prof. N.Xaydarov, dekani muovini Sh.Allayorov, prof.Q.Usmonov, dots. Z.Karimova va fakultet talabalari ishtirok etishdi. Tadbir qiziqarli va mazmunli tarzda o‘tdi.</p> <p>5 dekabr kuni institut Axborot-resurs markazida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi saylovi”ga bag‘ishlangan ilmiy amaliy anjuman o‘tkazildi. Ilmiy amaliy anjumanda Kredit-iqtisod fakulteti dekani i.f.n.O.Sattarov “To‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi”, “O‘DJQNA” kafedrasida dots.I.Tavasharova “Saylov komissiya-lariga a‘zolik”, “Deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish huquqi” i.f.n.O.Ortiqov, “Saylov oldi tashviqot” t.f.n.dots I.Qo‘ng‘irov va “Umumiy saylov huquqi” k.o‘q M.Ravshanovlar o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar.</p> <p>2-sonli talabalar turar joyida 17 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylovi o‘tkazish” bo‘yicha davra suhbatini o‘tkazildi. Suhbatda Kredit-iqtisod fakultet dekan muovini A.Botirov, “Bank ishi” kafedrasida mudiri S.Norqobilov hamda talaba-yoshlar ishtirok etdilar.</p>	
--	--	--	--	--

4.3	Institutda ARM hamda "Ma'naviyat va ma'rifat xonalari" fondini hukuqiy yo'nalishdagi adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar, davriy nashrlar va videomateriallar bilan boyitish	ARM, Ma'naviyat va ma'rifat xonalari Doimiy	Institut rahbariyati, ARM mudirasi	Institutda mavjud barcha ma'naviyat va ma'rifat xonalari zamon talablari darajasida jihozlanib, hukuqiy yo'nalishdagi adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar, davriy nashrlar va videomateriallar bilan boyitilgan.	Talaba-yoshlarga xuquqiy yo'nalishlarga oid ma'lumotlar etkaziladi va ularning bu boradagi fikr doiralari kengayi-shiga erishildi.
4.5	"Chet davlatlarda nokonuniy ishlashning salbiy oqibat-lari va uning oldini olish", "Odam savdosi nima?", "Odam savdosi – millatga qarshi illat" mavzularida davra suhbatlari o'tkazish	Fakultetlarda Yil davomida	"Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi, dekan muovirlari, "Kamolot" YoIH IBT	Hisob-iqtisod fakultetida 2009 yilning 11 dekabrda "Bugungi dolzarb mavzular – jinoyatchilik, narkomaniya, odam savdosi" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi. Suhbatda S.Raximov tumani IIB boshlig'i muovini podpolkovnik Nazarov Rixsiboy Maxkamovich, XIF dekanı M.Raximov, XIF dekan muovini A.Ro'zmamatov, fakultet talaba-yoshlari ishtirok etdilar. Suhbat davomida "Bugungi dolzarb mavzular – jinoyatchilik, narkomaniya, odam savdosi" talabalarga IIB xodimi tomonidan yuqoridagi illatlarning jirkanch oqibatlari haqida gapirib o'tildi, statistik ma'lumotlar berildi, mazkur illatlardan extiyot bo'lish kerakligi uqtirildi	. Talaba-yoshlarda odamlar savdosi muammosi, chet davlatlarda noqonuniy ishlashning salbiy oqibat-lari haqida muayyan tushunchalar hosil bo'lishiga va shu bilan birga noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olishga erishildi.
4.6	«Aholining, ayniqsa voyaga etmaganlar, yoshlar va xotin-qizlarning huquqiy savodxonliklarini oshirish, ular orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada kuchaytirish hamda odamlardan foydalanish uchun ularni yollash bilan bog'liq va axloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish» mavzusida uchrashuvlar tashkil etish	Fakultetlarda Yil davomida	"Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YoIH IBT	Boshqaruv fakulteti Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan Toshkent shahar Yunusobod tumani Xuquq organlari vakillari ishtirokida 2009 yilning 23 dekabrda "Nikoh, oila va qonun" mavzusida davra suxbatlari o'tkazildi. Suhbatda Yunusobod tumani FXDYo bo'limi mudiri M.Yo'ldasheva, Yunusobod tumani "Oila markazi" rahbari A.Kamalova, Tuman advokatlik hay'ati rahbari M.Xudayberdieva, Institut xotin-qizlar qo'mitasi raisi R.Azimboeva, Boshqaruv fakulteti xotin-qizlar qo'mitasi raisi N.Diyorova, Boshqaruv fakulteti talaba-	Xotin-qizlarning huquqiy savodxonligi oshirildi.

				qizlari ishtirok etdilar. Davra suhbatlari fikr mulohazalarga boy, qiziqarli tarzda o'tdi. O'tkazilgan tadbir fakultet xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirishda dastak bo'lib xizmat qiladi. Xotin-qizlarning huquqiy savodxonligi oshiriladi.	
--	--	--	--	--	--

V. EKOLOGIK BILIM VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

5.1	Talabalarga atrof-muhit va tabiatga hurmat munosabatida bo'lish har bir insonning burchi ekanligini tushuntirishga qaratilgan davra suhbatlari va uchrashuvlar o'tkazish	Fakultet-larda, Talabalar turar joylarida Har chorakda	"Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi, Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası, Fakultet dekanlari	5-10 oktyabr kunlari barcha akademguruhlarda "Obihayot musaf-foligi uchun" shiorida "Axborot soatlari" o'tkazildi. "Axborot soati"da talabalarga ekologik madaniyatni oshirish borasida dunyo miqyosida sodjir bo'layotgan global ekologik muammolardan tortib, mahalliy ekologik masalalarni kelib chiqishi, ularning oldini olish chora-tadbirlariga to'liq ma'lumotlar berildi. Institut tasarrufidagi 2-sonli Talabalar turar joyida 2009 yil 31 oktyabrda "Ekologik muammolarning yuzaga kelishda aholi omilining o'rni" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi. Suhbatda "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrası mudiri Abdulqosimov I., Tojiev M., Ilxomov M. Rasulo J. Allaberganov X. Qaraev S. va Kredit-iqtisod fakulteti dekan muovini A.Botirov hamda talaba-yoshlar ishtirok etdilar.	Talabalarga atrof-muhit va tabiatga hurmat munosabatida bo'lish falsafasi singdirildi.
5.2	Talabalarni institut hudud-larini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlariga jalb qilish	Fakultet-larda, Talabalar turar joylarida Maxsus reja	"Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi, Fakultet dekanlari	Talaba-yoshlarda mehr-oqibat, milliy qadriyatlarimizga xos ezgu fazilatlarini yanada yuksaltirish maqsadida institutda "Tozalik va obodonlashtirish oy"lari o'tkazib turiladi.	Talabalarda atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda mehnat tarbiyasi shakllandi.

		asosida			
VI. SOG'LOM TURMUSH TARZI VA JISMONIY MADANIYatNI SHAKLLANTIRISH					
6.1	Jamoa salomatligini muhofaza qilish maqsadida "Sport bayrami" , "Salomatlik sirlari" va "Giyohvandliksiz hayot uchun" kabi mavzularda tadbirlar uyushtirish	Fakultetlarda Muntazam	"Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi, Fakultet dekanlari	Sog'liqni saqlash vazirligi Salomatlik va tibbiy statistika instituti bilan Toshkent moliya instituti hamkorligida bir qator tadbirlar uyushtirildi. Jumladan, Institut tasarrufidagi 1-sonli Talabalar turar joyida "Moliya" kafedrasidan tomonidan "Yoshlar o'rtasida giyohvandlik va huquqbuzarlikni oldini olish" (16.09.2009), "Giyoxvandlikka qarshimiz, sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz" (22.10.09), Moliya-iqtisod fakultetida "Talaba – yoshlar orasida terrorizm va giyoxvandlikka qarshi kurashish - davr talabi" (5.11.09) kabi mavzularda davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil qilindi.	Professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlarning salomatligini yaxshilashga va ona erimiz noz-ne'matlari-ning shifobaxshligini targ'ib qilishga hamda salomatlikni asrash sirlarini talabalarga etkazishga erishildi.
6.2	"Jismoniy tarbiya va sport salomatlik garovi" shiori ostida professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida qishki va yozgi sport o'yinlarini o'tkazish	Sport zallarida Noyabr- may	Jismoniy tarbiya va sport kafedrasidan	Institut rektorati, Birlashgan kasaba uyushmasi va "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasidan tashabbuskorligida bir necha yildan buyon an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Rektor kubogi" futbol musobaqasida institutning barcha talabalari uyushqoqlik bilan ishtirok etdilar. Jumladan, sentyabr-oktyabr oylarida institut fakultetlariaro futbol baxslarining saralash bosqichi o'tkazildi. Unga ko'ra, sentyabr oyi davomida Kredit-iqtisod, Moliya-iqtisod, Hisob-iqtisod fakultetlari, oktyabr oyi davomida esa, Boshqaruv, Soliq va sug'urta ishi fakulteti, Moliya-injinirovi, Umumiy iqtisod fakultetlari hamda Magistratura bo'limi tasarrufidagi barcha guruhlar o'rtasida o'zaro o'tkazilgan baxslarda g'olib bo'lgan guruhlar jamoalari	Talabalarning darsdan bo'sh vaqti mazmunli o'tkaziladi va jismonan baquvvat bo'lib voyaga etishlariga sharoit yaratildi.

				<p>umumiy o'yinda o'z fakultetlari sharafini himoya qildilar. Uchta turdan iborat baxslar davomida qizg'in ishtirok etgan, Moliya-injinirovi, Moliya-iqtisod, Hisob-iqtisod hamda Magistratura bo'limi terma jamoalari yarim finalga yo'llanmani qo'lga kiritdilar. Noyabr oyining 9-18 sanalarida “Rektor kubogi”ning yarim final bosqichi o'tkazildi. Moliya-iqtisod fakulteti terma jamoasi musobaqada “V” guruhi tarkibida ishtirok etgan to'rt nafar jamoalar orasida yuqori natija ko'rsatib, g'oliblikka erishdi va “Rektor kubogi” musobaqasining uchinchi darajali diplomi hamda Birlashgan kasaba uyushmasining qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Noyabr oyining 9-18 sanalarida “Rektor kubogi”ning yarim final bosqichi o'tkazildi. “A” guruhi bo'yicha g'oliblik esa Magistratura bo'limi terma jamoasiga nasib etdi. Mazkur terma jamoa ishtirokchilari “Rektor kubogi”ning ikkinchi darajali diplomi bilan taqdirlandi. “A” guruhi bo'yicha ishtirok etgan Hisob-iqtisod fakulteti terma jamoasi final bosqichining mutloq g'olibiga aylanib, oliy darajadagi diplomini qo'lga kiritib “Rektor kubogi”ning haqli sohibiga aylandi. Soliq va sug'urta ishi fakultetida futbol bo'yicha “Kamolot kubogi” o'tkazildi. Ushbu futbol musobaqasi institut “Kamolot” YoIH BT rahbar-ligida tashkil etildi. Musobaqada fakultet guruhlaridan 20 ta jamoa ishtirok etdi. Musobaqaning yarim final bosqichlarida yuqori saviyadagi o'yinlar ko'rsatib raqiblardan ustunligini ko'rsata olgan</p>	
--	--	--	--	--	--

			<p>jamoalar, ya'ni yarim finalga ST-70-71 va ST-94 guruh jamoalari hamda final baxslariga ST-67 va SS-60,64 guruhi jamoalari chiqishdi. Musobaqaning yarim final va final o'yinlari 20 noyabr kuni institut "Moliyachi" sport majmuasida bo'lib o'tdi. Yarim finalda 3-o'rin uchun ST-70,71 va ST-94 guruh jamoalari maydonga tushishdi. Natijaga ko'ra, ST-70,71 guruh jamoasi 3:1 hisobida ST-94 jamoasi ustidan g'olib chiqib, 3-darajali diplom va musobaqaning bronza medali sohibi bo'ldi. ST-67 va SS-60,64 guruh jamoalari musobaqa kubogi uchun maydonga tushdilar. O'yinning 1-taymi juda qizg'in kechdi va jamoalar tanaffusga 1:1 hisobida chiqishdi. Tanaffusdan so'ng 2-taymda o'zlarining raqiblaridan ustunligini ko'rsata olgan ST-67 guruh jamoasi o'yinni 4:2 hisobida hal qildi. Natijaga ko'ra, SS-64 guruh jamoasi 2-darajali diplom va musobaqaning kumush medali sohibi bo'lishdi. Musobaqaning finalida qolaversa butun o'yin davomi o'zlarining yuqori tayyorgarlikka ega ekanligini ko'rsata olgan ST-67 guruh jamoasi faxrli 1-o'rin va musobaqaning oltin medali, haqli ravishda "Kamolot kubogi" sohibi bo'lishdi. Musobaqaning taqdir-lash marosimida g'oliblarni "Kamolot" YoIH IBT raisi K.Mahmudov, fakultet dekani M.Almardonov, dekan muovnlari G'.Safarov, R.Matniyazov, M.Primov va "Informatsion texnolo-giyalar" kafedrasini mudiri O.Kenjajevlar tabriklab, sovrinlarni</p>	
--	--	--	--	--

